

OG'ZAKI VA YOZMA HISOBLASHGA DOIR DIDAKTIK TOPSHIRIQLAR TO'PLAMIN TUZISH

Saparva Umida

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Yusupova Madina

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi

Annotasiya: *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoni va "Kadrlar tayyorlash millay dasturi"da matematika o'qitishning sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarning tafakkuri va shaxsiy sifatlarini, matematik savodxonligini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini o'hirish masalalari berilgan. Boshlang'ich matematika kursining asosiy natural son va nol, butun musbat sonlar ustida to'rt arifmetik amal hamda ularning asosiy xossalari haqidagi aniq tasavvurlar va bu bilimlarga asoslangan og'zaki va yozma hisoblash usullarini ongli puxta o'zlashtirishni tashkil etish, shuningdek jadval hollaridagi hisoblash malakalarini avtomatizm darajasida yetkazilishini tashkil etadi.*

Kalit so'zlar: *Darslik, metod, ko'rgazma, tushuncha, og'zaki, yozma, plus, minus*

Matematik ta'lim sohasi bo'yicha standart ko'rsatkichlar bolalarda naturalsonlar va nol to'g'risida tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlarni va arifmetik amallarni qo'llayolishga o'rgatish, eng sodda geometrik shakllar hamda og'zaki hisoblash va matematikmunosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai nazaridanbelgilandi.Og'zaki hisoblashga doir mashg'ulotlarning samaradorligi mashqlarning hajmiva mazmunigagina emas, balki ularning berilishi va tekshirilishi, o'quvchilarningbilimini sinash, og'zaki va yozma mashqlarning almashtirib turilishiga ham bog'liqdir.Og'zaki hisoblash malakalarining uzluksiz takomillashib borishi uchun og'zaki vayozma hisoblash usullarini qo'llashda to'g'ri munosabat o'rnatish, chunonchi og'zakihisoblash qiyin bo'lgandagina yozma hisoblash zarur. O'quvchilarning topshiriqnieshitib qabul qilishlarida o'qituvchi topshiriqni o'qib beradi, ular esa eshitadi. Bundaasosiy kuch xotiraga qaratiladi, bunday mashqlar juda foydali bo'lib, eshitish xotirasini rivojlantiradi.Bolalarning og'zaki hisoblash malakalarini har doim tekshirib turish kerak. Og'zaki hisoblashga doir mashqlarni birinchi darslardan oq kiritilsa, samarasi ancha yuqori bo'ladi. O'quvchilarning og'zaki hisoblash malakalari turli-tuman mashqlarni bajarishlari jarayonida shakllanadi. Asosiy matematik tushunchalar hosil qilish, sonlarning xossalari va arifmetik amallarning qonunlarini o'rganish bilan bir qatorda boshlang'ich ta'limda bolalarda hisoblash malakalari hosil qilish doim eng muhim o'rin tutib kelgani hammaga ma'lum. Bolalarga hisoblashni o'rgatish sistemasi va metodikasida turli zamonlarda va turli

mamlakatlarda prinsipial farqlar faqat ogʻzaki va yozma hisoblash usullarini aniqlashga, hamda tegishli malakalar hosil qilish yoʻliga nisbatangina boʻlgan. Har bir kishi uncha murakkab boʻlmagan hisoblashlarni "zehnda" tez va toʻgʻri bajarishni bilishining amaliy ahamiyatidan tashqari, ogʻzaki hisobni oʻzbek uslubshunoslari doim bolalarning arifmetika darslarida olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirishning yaxshi vositalaridan biri deb qaraydilar. Ogʻzaki hisob asosiy matematik tushunchalarni shakllantirishga sonlarning qoʻshiluvchilardan, koʻpaytuvchilardan iborat tarkibi bilan yanada chuqurroq tanishishga, arifmetik amallarning qonunlarini va boshqalarni yaxshi oʻrganishga yordam beradi. Ogʻzaki hisob mashqlarga tarbiyaviy jihatdan ham yuksak baho berib kelingan: ogʻzaki hisob bolalarda fahm-farosat, zehn, diqqatning rivojlanishiga, bolalar xotirasini, aktivligini, chaqqonligini, sezgirlik va fikrlashda mustaqilligini rivojlantiradi deb hisoblangan. Hozirgi zamon maktabida ogʻzaki va yozma hisoblar qanday oʻrin tutishi kerak? Shu asosiy masala bilan bogʻlangan qanday xususiy masalalar maktab tajribasida tekshirib koʻrishni talab qiladi? Hisoblashning ikkala turi ham boshlangʻich matematika taʼlimi sistemasida muhim roʻlini saqlashi kerak. Matematik maʼlumotnoma jadval oʻquvchilar turmushda uchratadigan hollarning hammasini oʻz ichiga ololmaydi. Oʻquvchilar mustaqil bajargan arifmetik shakl almashtirishlar ularga shakl almashtirishning oʻzi nima ekanini tushunishga yordam etadi, busiz oʻquvchilarga jadvallarni tushunib olishning oʻzi ham qiyin boʻladi. Ammo dasturga hamda metodikaga maqsadga muvofiq oʻzgarishlar kiritib, ogʻzaki va yozma hisoblashni oʻrgatishni ratsionallashtirish zarur. Bundan buyon yozma hisoblash usullarini, hozirgi dastur boʻyicha nazarda tutilganidek, ming ichida emas, balki, mumkin boʻlgancha ilgariroq, yuz ichida kiritish mumkinligini tekshirib koʻrish kerak. Mingni alohida konsentr qilib olishni bekor qilib, konsentrlarni kamaytirish imkonini ham tekshirish lozim. Dasturdagi yozma hisoblashning koʻp xonali sonlarga taalluqli baʼzi xollarini qisqartirish masalasini qoʻyishga jiddiy asoslar bor. Birinchi navbatda uch xonali songa koʻpaytirish va boʻlishning baʼzi xollarini qisqartirish oʻrinli boʻlsa kerak. Hisoblash usullari kichik sonlarga nisbatan qanday boʻlsa, katta sonlarga nisbatan ham shundayligicha qoladi. Oʻquvchilar kichik sonlar bilan ish koʻrganlarida bu usullarni toʻla egallab oladilar. Agar oʻquvchiga amaliyotda katta sonlar bilan hisoblash kerak boʻlib qolsa, u hisoblashni uddalay oladi. Hisoblash usullari oʻquvchida paydo boʻlgan, faqat butun hisoblash jarayoni davomida diqqat-eʼtiborni saqlash kerak boʻladi, xolos. Shuni ham qayd qilib oʻtish lozimki, maktabda bolalar (katta sonlar bilan) yozma hisoblashlarda koʻp xato qiladilar; buning sababi ular hisoblashni bilmaganliklaridan emas, balki hisoblash jarayoni ustida oʻz diqqatlarini tutib tura olmaganliklaridadir. mOgʻzaki mashqlar oʻqituvchiga darsda oʻquvchilarni biroz erkin va qulaytutishiga imkon beradi. Oʻqituvchi har bir darsga puxta tayyorgarlik koʻrib turli xildagi dars berish uslublaridan darsda oqilona foydalansa, hozirgi zamon kundalik yangiliklarni bolalarning ingiga yetkaza olsa, xozirgi zamon yangi axborot texnologiyasini bolalar ongiga toʻgʻri yoʻnaltira bilsa, oʻquvchilar bilimidagi boʻshliqlarning paydo boʻlishiga oʻrin qolmaydi. Bolalarga oʻyinni oʻrgatishdan

muayyan ta'limiymaqсад nazarda tutiladi. o'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. o'yin o'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz «Jimjitlik» o'yinining 5—7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik; «Nima o'zgardi?» tipidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi va hokazo. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bo' tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. SHuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Xulosa qilib shuni aytadiki Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi. o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10, «Do'koncha»da 8—12 bola, «Narvoncha» da esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo. Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari bevosita ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo -ishoralar vositasida bevosita qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» kabi o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi. Biz bilamizki, bolalar o'qishning o'zidagina o'smaydilar, balki ular o'yin jarayonida ham hamjihat bo'lishga, hayotni bilishga o'rganadilar. Bu o'yinlarda bolalarning o'z-o'zlarini boshqara, tuta bilishga o'rganishlarini ta'kidlab o'tish lozim. Bu o'yinlar bolalarni intizomli qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar

hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish diktanti» singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadila

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. Toshkent. TDPU, 2003 yil. 40 bet
2. Jumaev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2003 yil.
3. Jumaev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2005 yil.
4. Jumaev E.E, Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Arnoprint" 2005 yil.
5. Jumaev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. "TDPU" 2005 yil.